

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil 2-sон

VOLUME 8 / ISSUE 2 / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.2.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI**

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amalij jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Muharrirlar:

Y. Yarmolik, Y. Mahmudov,
E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 24.06.2024-yilda tipografiyaga topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 18,6 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 87.

TDYU tipografiyasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

MAS'UL MUHARRIR

O. Choriyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

A. Saidov – Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor (Toshkent, O'zbekiston)

E. Juchniewicz – Gdansk universiteti professori, huquq doktori (Gdansk, Polsha)

A. Younas – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Pekin, Xitoy)

O. Okyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

J. Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

Sh. Asadov – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

M. Aminjonova – O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

M. Rahimov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

B. Murodov – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

A. Muxamedjanov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

N. Niyazova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi (Toshkent, O'zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Редакторы:

Е. Ярмолик, Й. Махмудов,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Ф. Мухаммадиева

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгоҳ, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz
Подписной индекс: 1385.

Журнал передан в типографию 24.06.2024.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 18,6. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 87.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

И. Рустамбеков – доктор юридических наук, профессор, врио ректора Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

В. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

О. Чориев – начальник редакционно-издательского отдела Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

А. Сайдов – доктор юридических наук, профессор, директор Национального центра по правам человека Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Э. Юхневич – доктор права, профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Юнас – доктор философии по юридическим наукам (Пекин, Китай)

О. Окулов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ш. Асадов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Аминжонова – доктор юридических наук, доцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Рахимов – доктор юридических наук, доцент Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

О. Нарзуллаев – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Б. Муродов – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

А. Мухамеджанов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Н. Ниязова – кандидат педагогических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Editors:

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafaev, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadieva

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

The journal is submitted to the printing house on 24.06.2024.
Paper size: A4.
Cond. p.p.18,6. Unit: 100.
Order: 87.
Published in printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

I. Rustambekov – Acting Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

O. Choriev – Head of the Publishing Department of Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD MEMBERS

A. Saidov – Director of the National Centre for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor (Tashkent, Uzbekistan)

E. Juchniewicz – Professor of the University of Gdansk, Doctor of Law (Gdansk, Poland)

A. Younas – Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Beijing, China)

O. Okyulov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Nematov – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Sh. Asadov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Aminjonova – Associate Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Rakhimov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD) (Tashkent, Uzbekistan)

O. Narzullaev – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

B. Murodov – Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

A. Muxamedjanov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

N. Niyazova – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

8 TULTEYEV ILYAS TAVASOVICH

O'zbekistonda strategik rejalashtirishni huquqiy ta'minlash masalasi

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

19 NORMATOV BEKZOD AKRAM O'G'LI

O'zbekistonda soliq tekshiruvlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalari

32 ISTAMOV MAXMUD SHUXRATOVICH

Saylov jarayoni ishtirokchisi sifatida siyosiy partiyalar: milliy qonunchilik va uni takomillashtirish

43 MUSTANOV ILXOM ABDIVALIJONOVICH

Banklar faoliyatini nazorat qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari: qiyosiy-huquqiy tahlil

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.

XALQARO XUSUSIY HUQUQ

62 GULYAMOV SAID SAIDAXRAROVICH, RUSTAMBEKOV ISLOMBEK RUSTAMBEKOVICH

Raqamli aktivlarni himoya qilish: O'zbekiston kriptobirjalari ekotizimi uchun kiber xavfsizlik imperativlari

73 MAHMUDXODJAYEVA UMIDA MUMINOVNA

Ota-onalik huquqidan mahrum etish asoslari va oqibatlari: nazariya va amaliyot

87 EGAMBERDIYEV EDUARD XAJIBAYEVICH, SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA

Raqamli obyektlarni vasiyat qilish: meros qoldiruvchining so'nggi istagini amalga oshirish muammolari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLİSH.

KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

97 OTAJONOV ABRORJON ANVAROVICH

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar uchun javobgarlik choralarini takomillashtirish

113 XUDAYKULOV FERUZBEK XURRAMOVICH

Jinoyat huquqida harakatsizlik va uning turlari: tahlil va taklif

125 ABDUXAKIMOV MURODULLO TOG'AYEVICH

Xorijiy mamlakatlarda yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan prokuror nazorati ahvoli

137 ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH

Xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligidagi yuridik shaxslarga nisbatan jazoni yengillashtirish masalalari

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (SOHALAR BO'YICHA)

147 GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA

Yuridik terminologiyada sinonimiya va polisemiya

155 KARAXODJAYEVA DILOROM MAMIROVNA

Ruzinazarov Shuhrat Nuraliyevich – taniqli olim, O'zbekiston zamonaviy fuqarolik huquqi maktabi vakili

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

8 ТУЛЬТЕЕВ ИЛЬЯС ТАВАСОВИЧ

К вопросу о правовом обеспечении стратегического планирования в Узбекистане

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

19 НОРМАТОВ БЕКЗОД АКРАМ УГЛИ

Вопросы совершенствования правового регулирования налоговых проверок в Узбекистане

32 ИСТАМОВ МАХМУД ШУХРАТОВИЧ

Политические партии как участники избирательного процесса: национальное законодательство и его совершенствование

43 МУСТАНОВ ИЛЬХОМ АБДИВАЛИЖОНОВИЧ

Организационно-правовые механизмы контроля банковской деятельности: сравнительно-правовой анализ

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

62 ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ, РУСТАМБЕКОВ ИСЛАМБЕК РУСТАМБЕКОВИЧ

Защита цифровых активов: императивы кибербезопасности для экосистемы криптобирж Узбекистана

73 МАХМУДХОДЖАЕВА УМИДА МУМИНОВНА

Основания и последствия лишения родительских прав: теория и практика

87 ЭГАМБЕРДИЕВ ЭДУАРД ХАЖИБАЕВИЧ, ШАЙМАРДАНОВА ДИЛАФРУЗ ДИЛМУРАТОВНА

Завещание цифровых объектов: проблемы реализации последней воли наследодателя

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

97 ОТАЖОНОВ АБРОРЖОН АНВАРОВИЧ,

Совершенствование мер ответственности за такие преступления, как незаконный оборот наркотических средств, психотропных веществ и их аналогов

113 ХУДАЙКУЛОВ ФЕРУЗБЕК ХУРРАМОВИЧ

Бездействие и его виды в уголовном праве: анализ и предложения

125 АБДУХАКИМОВ МУРОДУЛЛО ТОГАЕВИЧ

Состояние прокурорского надзора за исполнением земельного законодательства в зарубежных странах

137 ИСЛОМОВ БУНЁД ОЧИЛОВИЧ

Вопросы смягчения наказания в отношении юридических лиц по уголовному законодательству зарубежных стран

13.00.02 – ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (ПО ОТРАСЛЯМ)

147 ГУЛЯМОВА ГУЛЬНОРА ЯКУБОВНА

Синонимия и полисемия в юридической терминологии

155 КАРАХОДЖАЕВА ДИЛОРОМ МАМИРОВНА

Рузиназаров Шухрат Нуралиевич – выдающийся учёный, представитель современной цивилистической школы Узбекистана

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

8 **TULTEYEV ILYAS TAVASOVICH**

On the issue of legal support for strategic planning in Uzbekistan

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCE AND CUSTOMS LAW

19 **NORMATOV BEKZOD AKRAM UGLI**

Issues of improvement of legal regulation of tax inspections in Uzbekistan

32 **ISTAMOV MAXMUD SHUXRATOVICH**

Political parties as participants of the electoral process: national legislation and its improvement

43 **MUSTANOV ILKHOM ABDIVALIJONOVICH**

Organizational and legal mechanisms for control of banking activities: comparative-legal analysis

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW.

INTERNATIONAL PRIVATE LAW

62 **GULYAMOV SAID SAIDAKHRAROVICH, RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH**

Protecting digital assets: cybersecurity imperatives for Uzbekistan's crypto exchange ecosystem

73 **MAHMUDKHODJAEVA UMIDA MUMINOVNA**

Foundations and consequences of deprivation of parental rights: theory and practice

87 **EGAMBERDIEV EDUARD KHAZHIBAYEVICH, SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**

Bequest of digital objects: problems of realisation of the last will of the testator

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY.

CRIMINAL PROCEDURAL LAW

97 **OTAJONOV ABRORJON ANVAROVICH**

Improving liability measures for crimes involving the illegal handling of narcotic drugs, psychotropic substances, and their analogues

113 **KHUDAYKULOV FERUZBEK KHURRAMOVICH**

Inaction in criminal law and its types: analysis and proposals

125 **ABDUKHAKIMOV MURODULLO TOGAEVICH**

The state of prosecutorial control over execution of land legislation in foreign countries

137 **ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**

Issues of mitigation of punishment for legal entities in the criminal legislation of foreign countries

13.00.02 – THEORY AND METHODOLOGY OF EDUCATION AND UPBRINGING (BY FIELDS)

147 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**

Synonymy and polysemy in legal terminology

155 **KARAXODJAEVA DILOROM MAMIROVNA**

Ruzinazarov Shukhrat Nuralievich – an outstanding scientist, a representative of the modern civil school of Uzbekistan

Kelib tushgan / Получено / Received: 30.04.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 11.06.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.06.2024

DOI: 10.51788/tsul.rols.2024.8.2./VQAK3226

UDC: 347.634/.637(045)(575.1)

OTA-ONALIK HUQUQIDAN MAHRUM ETISH ASOSLARI VA OQIBATLARI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Mahmudxodjayeva Umida Muminovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik huquqi kafedrasи dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori
ORCID: 0000-0002-5726-415X
e-mail: musanifa-88@mail.ru

Annotatsiya. Zamonaviy dunyo oqimida yangicha tartib-taomillarning shiddat bilan hayotimizga kirib kelayotganligini inobatga olib ta'kidlash joizki, ota-onsa va bolalar o'rtasidagi oilaviy munosabatlarning murakkab vaziyatlari vujudga kelayotganligi ayni haqiqatdir. Shuningdek, oila va bolalarning huquq va manfaatlari borasidagi insoniyatning qarashlari so'nggi yigirma yil ichida tubdan o'zgardi. Shu bilan birga, biz oila huquqi deganda huquqlarni himoya qilish usullari – tegishli huquqlarni majburiy amalga oshirish, ularni tiklash va (yoki) tan olish, shuningdek, aybdor shaxsga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan soha qonunchiligi bilan tartibga solinadigan va sud tomonidan qo'llanadigan davlat choralarini tushunamiz. Bu shuni anglatadiki, oilaviy-huquqiy javobgarlik chorasi sifatida ota-onsa huquqlaridan mahrum qilish amalda tegishli himoya usuli, muayyan harakatlar tizimini amalga oshirish orqali boshqa shaxsning huquqlarini himoya qilish maqsadida bir shaxsni huquqlaridan mahrum qilish yoki cheklash orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqolada ota-onalik huquqlaridan mahrum etish holatlari milliy va xorijiy qonunchilik nuqtayı nazaridan tahlil etiladi. Shuningdek, huquqni qo'llash amaliyoti, sud materiallari asosida muammolar atroflicha o'rganilib, milliy qonunchilikni rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: ota-onsa, bola, oila huquqi, oilaviy javobgarlik, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, bola manfaati, zo'ravonlik turlari, g'ayriqonuniy xatti-harakat, harakatsizlik.

ОСНОВАНИЯ И ПОСЛЕДСТВИЯ ЛИШЕНИЯ РОДИТЕЛЬСКИХ ПРАВ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Махмудходжаева Умида Муминовна,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
доцент кафедры «Гражданское право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Учитывая, что в современном мировом потоке в нашу жизнь бурно проникают новые порядки, стоит отметить, что возникают и сложные ситуации семейных отношений между родителями и детьми. Также можно заметить, что за последние двадцать лет взгляды людей на права и интересы семьи и детей радикально изменились. При этом под

семейным правом мы понимаем методы защиты прав: принудительное осуществление соответствующих прав, их восстановление и (или) признание, а также государственные меры, регулируемые отраслевым законодательством и применяемые судом, направленные на воздействие на виновного лица. Это означает, что лишение родительских прав как мера семейно-правовой ответственности осуществляется путём лишения или ограничения прав одного лица в целях защиты прав другого лица, т. е. реализации подходящего способа защиты, определённой системы действий. В данной статье случаи лишения родительских прав анализируются с точки зрения национального и зарубежного законодательства. Также на основе правоприменительной практики, судебных материалов тщательно изучаются проблемы и даются предложения и рекомендации по развитию национального законодательства.

Ключевые слова: родитель, ребёнок, семейное право, семейная ответственность, лишение родительских прав, интересы ребёнка, виды насилия, противоправное поведение, бездействие.

FOUNDATIONS AND CONSEQUENCES OF DEPRIVATION OF PARENTAL RIGHTS: THEORY AND PRACTICE

Mahmudkhodjaeva Umida Muminovna

Tashkent State University of Law,
Associate Professor of the Department of Civil Law,
Doctor of Philosophy in Legal Sciences

Abstract. Because in the conditions of the modern world, given that new ways of life are rapidly entering our lives, it is worth noting that there are complex situations of family relations between parents and children. It can also be seen that people's views on family and children's rights and interests have changed radically in the last twenty years. At the same time, we understand by family law the methods of protection of rights—the compulsory implementation of the relevant rights, their restoration, and/or recognition—as well as state measures regulated by the legislation of the field aimed at influencing the guilty person and applied by the court. This means that deprivation of parental rights as a measure of family legal responsibility is carried out by depriving or restricting the rights of one person in order to protect the rights of another person by implementing a suitable method of protection or a certain system of actions. In this article, cases of deprivation of parental rights are analyzed from the point of view of national and foreign legislation. Also, on the basis of law enforcement practices and court materials, problems are thoroughly studied, and suggestions and recommendations are made for the development of national legislation.

Keywords: parent, child, family law, family responsibility, deprivation of parental rights, best interests of the child, types of violence, illegal behavior, inaction.

Kirish

Barchamizga ma'lumki, nafaqat jahonda, balki mamlakatimizda ham ota-onalik huquqidan mahrum bo'lgan ota-onalar soni yil sayin ortib bormoqda. Muammoning dolzarbligini huquqni qo'llash amaliyoti aniq ko'rsatmoqda, bu ota-ona huquqlarini suiiste'mol qilish, ota-onalik majburiyatlarini bajarmaslik va ota-onalik huquqidan

mahrum bo'lgan ota-onalar sonining ko'payishi tendensiyasidan dalolat beradi. Jumladan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda 2021-yilda profilaktik hisobda turgan ota-onalar 12 941 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 17 032 nafarni tashkil etgan [1]. Bu ko'rsatkichlar, o'z navbatida, 2021-yilga nisbatan 2022-yilda ularning soni 31,6 foizga oshganligini

ko'rish mumkin. Shuningdek, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan birinchi instansiada ko'rilgan ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq ishlar yuzasidan statistik ma'lumotga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2020-yilda 850 ta, 2021-yilda 1 244 ta, 2022-yilda 1 336 ta, 2023-yilning 6 oyida 601 ta [2] ish ko'rib tamomlangan va ota-onalar yoki ulardan biri ota-onalik huquqidan mahrum etilgan.

Material va metodlar

Ota-onalik huquqidan mahrum etish asoslari va oqibatlarini nazariy va amaliy tahlil etish jarayonida qiyosiy tahlil, nazariy modellashtirish, induksiya va umumlashtirish usullari qo'llandi. Milliy qonunchilik va xorijiy davlatlar qonunchiliqi qiyosiy o'rganilib, milliy qonunchilikka implementatsiya etish yuzasidan g'oyalar ilgari surildi.

Tadqiqot natijalari

Tahlil natijasida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, ota-onalik huquqidan mahrum etish institutining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari bir tarafdan bolaning oilaviy-huquqiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tarafdan ota-onalar hokimiyatini cheklash va ularning qonunga xilof xatti-harakatlariga nisbatan aniq sanksiyalar ishlab chiqilishiga asos bo'lgan.

Ikkinchidan, ota-onalik huquqidan mahrum qilish oilaviy-huquqiy javobgarlikning bir turi bo'lib, unda jazo elementi aniq namoyon bo'ladi. Shuningdek, ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishning asosiy vazifasi bolaning eng yaxshi manfaatlarini ta'minlash va otani jazolamaslikdir.

Uchinchidan, xorijiy davlatlar qonunchiligini tahlil etib, ota-onalik huquqlarini tutgatish, undan mahrum qilish va buning asoslari mavjud bo'lishiga qaramasdan, ota-onalik huquqidan mahrum etish tushunchasi mavjud emas degan xulosaga kelindi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzganlik uchun himoya qilish va javobgarlikning amaldagi choralar oilaviy munosabatlar va huquq tizimi rivojlanishining har bir yangi bosqichi bilan faol o'zgarib bormoqda, bu esa, o'z navbatida, ularni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish joizki, oila qonunchiligidagi javobgarlik choralariga jiddiy e'tibor qaratilishi, ularni yangilash zarurati hamda ota-onalik huquqidan mahrum qilish institutini o'rganish jiddiy ahamiyat kasb etmoqda. Bu mavzuni ko'rib chiqishning dolzarbligini oshiradi.

Bugungi kunda xalqaro huquqda bolalarga taalluqli barcha qarorlarda bola manfaatlari birinchi o'rinda turishi kerak degan fikrni qo'llab-quvvatlovchi keng konsensus mavjud [3]. Ushbu tamoyil bizga ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq nizolar muammosiga munosabatimizni ko'rib chiqish va ushbu oila huquqi instituti mavjud bo'lgan davrda yuzaga kelgan noqulay savol-larga javob berish imkoniyatini beradi.

M. Borotov ota-onalik huquqidan mahrum etish instituti to'g'risida fikrlarini quyidagi cha ifodalaydi: "Falsafaning mashhur qonuniyatiga assolansak, har bir narsa (voqe-lik)da sabab va oqibat bo'lgani bu rishta singari nikoh orqali vujudga kelgan. Oila gultoji bo'lgan farzandlarga nisbatan, afsuski, ota-onalik huquqidan mahrum qilish oqibatlari shunchaki axloqiy, maishiy, tor munosabat bo'lmay, balki davlat va jamiyat ahamiyatiga molik masaladir. Shu ma'noda qonun chiqaruvchi ushbu munosabatni huquqiy makonga – oila qonunchiliga ko'chirdi. Aslida oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oilani uning barcha a'zolari mas'ulligi asosida qurishidan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslik, oila a'zolari o'z huquqlari-

ni to'sqiniksiz amalga oshirishi hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iborat" [4].

Bugungi kunda xalqaro huquqda bolalariga taalluqli barcha qarolarda bolaning manfaatlari birinchi o'rinda turishi kerak degan fikrni qo'llab-quvvatlovchi keng konsensus mavjud [3]. Ushbu tamoyil bizga ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq nizolar muammosiga munosabatimizni ko'rib chiqish va ushbu oila huquqi instituti mavjud bo'lgan davrda yuzaga kelgan noqulay savollarga javob berish imkoniyatini beradi.

Shu o'rinda ota-onalik huquqidan mahrum etishning huquqiy tahlili tarixiga nazar tashlaylik. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish instituti XIX asrda shakllana boshladi. Yevropada zo'ravonlikka uchragan bolalarni himoya qilish to'g'risidagi qonunlar 1889-yildan boshlab paydo bo'la boshladi: Fransiyada 1889-yilda, Angliyada 1891-yilda, Germaniyada 1896-yilda, Shveysariyada 1907-yilda. Bu qonunlar bilan ota-onalarning hokimiyatini cheklash zarurati masalasi ko'tarildi [5]. Rossiyada ota-onalik hokimiyati institutining bekor qilinishi faqat 1917-yilgi inqilobdan keyin sodir bo'ldi. Bu davrda davlat o'z oldiga bolalarni tarbiyalash bilan bog'liq masalalarni me'yoriy hal etish vazifasini qo'ysi. 1918-yildagi Fuqarolik holati, nikoh, oila va vasiylik to'g'risidagi kodeksining 153-moddasiga ko'ra, "ota-onalik huquqlari faqat bolalar manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladi, agar ular qonunga xilof ravishda amalga oshirilsa, sudga ota-onalarni ushbu huquqlardan mahrum qilish huquqi beriladi" [7]. Ushbu kodeks ota-onalik huquqidan mahrum qilishning sud tartibini belgilab berdi. Garchi qonun chiqaruvchi bunday chorani qo'llash uchun aniq asoslarni ko'rsatmagan bo'lsa ham, qonunda birinchi marta bolaning manfaatlariga havola paydo bo'ldi. Bunday da'vo bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasi ko'rsatilmagan – qonunning ma'nosiga ko'ra, har qanday shaxs

sudga bunday da'vo bilan murojaat qilishi mumkin edi.

RSFSRning 1926-yildagi Nikoh, oila va vasiylik to'g'risidagi kodeksida ota-onalik huquqlaridan mahrum qilish ham ota-onalar tomonidan bolalar manfaatlarini buzish bilan bog'liq edi, ammo bu yerda birinchi marta bolalarni olib qo'yish haqida gap boradi. Ko'rilib turibdiki, o'sha paytda qonun chiqaruvchi ota-onalik huquqlaridan mahrum qilish va bolalarni olib qo'yish o'rtasidagi farqni ajratmagan. Ushbu kodeksning 46-moddasida ota-onalarning o'z majburiyatlarini bajarmasliklari, o'z huquqlarini qonunga xilof ravishda amalga oshirishlari, bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lishlari bolalarni olib qo'yish uchun asos sifatida belgilangan. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risida sudda ish qo'zg'atish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasi haqida hech narsa aytilmagan.

Keyinchalik 1935-yilda SSSR Xalq Komisarlari Soveti va Butunittifoq bolsheviklar kommunistik partiyasi markaziy qo'mitasining "Bolalarning uysizligi va qarovsizligini bartaraf etish to'g'risida"gi qarori bilan bu huquq Xalq ta'limi komissarligi organlariga berildi [7]. Shuningdek, ota-onalik huquqlaridan mahrum qilish jinoyat protsessida ham mumkin edi. 1926-yilgi RSFSR Jinoyat kodeksiga muvofiq, bu chora qo'shimcha jazo sifatida qo'llangan va shoshilinch xarakterga ega edi. Agar sud mahkum ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilgan bo'lsa, unda ozodlikdan mahrum qilish uchun sudlangan taqdirda ota-onalik huquqlaridan mahrum qilish jazoni o'tashning butun vaqtiga va sud tomonidan tayinlangan muddatga uzaytirildi, bu 5 yildan yuqori bo'lishi mumkin emas (32-modda) [8]. SSSRda ota-onalik huquqlaridan mahrum qilish institutini rivojlantirishning yangi bosqichi 1968-yilda SSSR va ittifoq respublikalarining nikoh va oila to'g'risidagi qonun hujjatlari asoslarining qabul qilinishi hamda shu asosda yaratilgan RSFSRning 1969-yildagi

Nikoh va oila to'g'risidagi qonunlar kodeksi bilan bog'liq. Ikkinchisi ilk bor ota-onalarning huquq va majburiyatlarini alohida bobda yoritib berdi. 1926-yilgi kodeksda ko'rsatilgan ota-onalik huquqlaridan mahrum qilish asoslariga ota-onalarning axloqsiz, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlari, surunkali alkogolizm yoki giyohvandlikning bolalarga zararli ta'siri qo'shildi (RSFSR 1969-yildagi Nikoh va oila to'g'risidagi qonunlar kodeksining 59-moddasi) hamda ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risida ariza berish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasi kengashtirildi: prokuror, bolaning ota-onasidan biri yoki vasiysi, davlat va jamoat tashkilotlari [9]. Bu qarash keyinchalik Rossiya Federatsiyasining 1995-yildagi Oila kodeksi 70-moddasida aks ettirilgan.

Mazkur tahlillardan kelib chiqib aytish joizki, ota-onalik huquqidan mahrum etish institutining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari bir tarafdan bolaning oilaviy-huquqiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tarafdan ota-onalar hokimiyatini cheklash va ularning qonunga xilof xatti-harakatlariga nisbatan aniq sanksiyalar ishlab chiqilishiga asos bo'lgan degan xulosaga kelish mumkin.

Ta'kidlash lozimki, ota-onalik huquqidan mahrum qilish institutini xalqaro-huquqiy tartibga solish asoslari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi qoidalarida belgilab qo'yilgan. Ushbu konvensiyaning 9-moddasiga ko'ra, bola o'z xohishidan tashqari o'z ota-onalardan ajralishi mumkin emas, faqat bunday ajralish bolaning manfaati taqozo etganda davlat organlari tomonidan sud qaroriga asosan qonunchilikda belgilangan holatlarda ajralishi mustasno. Bunday choralar muayyan holatlarda, masalan, ota-onalar bolalari bilan shafqatsiz munosabatda bo'lsa, bola ota-onasidan alohida yashayotgan holatlarda bolaning yashash joyini belgilash zarurati mavjud bo'lganda zarurat sifatida ko'riliши mumkin [10].

O'zbekiston Oila kodeksi ota-onalik huquqidan mahrum qilish tushunchasini o'z ichiga olmaydi, lekin ota-onalik huquqini cheklash va undan mahrum qilish asoslarini ko'rsatib o'tadi. OKning 79-moddasida ota-ona huquqlaridan mahrum qilish uchun beshta asos keltirilgan. Bu ro'yxat ham bugungi kundagi ijtimoiy munosabatlar doirasi-da to'liq emas.

Mahrum so'zi lug'atda benasib, bebahra qolgan; ajratib qo'yilgan, chetlashtirilgan, ya'ni ega bo'lish huquqi bo'limgan kabi ma'nolarda keladi [11]. Demak, ota-onalik huquqidan mahrum qilish deganda ota-ona ning o'z farzandlariga nisbatan qonunda belgilangan huquqlaridan mahrum qilinishini tushunishimiz kerak. Qayd etilgan ma'lumotlardan kelib chiqib ota-onalik huquqidan mahrum qilishga quyidagi cha ta'rif berishimiz mumkin: ota-onalik huquqidan mahrum qilish deb ota-onalarning o'z farzandlariga nisbatan birga yashash, ta'lim-tarbiya berish, g'amxo'rlik qilish kabi huquqlarining qonunda belgilangan tartibda va asoslarda ota yoki ona uchun yoxud ularning har ikkisi uchun bekor qilinishiga aytildi [12].

U.Sh. Sharaxmetovaning ta'kidlashicha, ota-onalik huquqidan mahrum qilish asosifatida ota-onalarning huquqqa xilof hamda aybli harakati hamda harakatsizligi ko'rildi. Oila kodeksining 79-moddasasi ota-onalik huquqidan mahrum qilishning qat'iy asoslari ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra, ota-ona o'zlarining ota-onalik majburiyatlarini bajarmasalar, u holda ular ota-onalik huquqidan mahrum etiladilar. Ota-onalik huquqidan mahrum etish so'nggi chora hisoblanadi. Ota-onalik huquqidan mahrum etish ularga ta'sir qiladigan hamma chora-tadbirlar tegishli natija bermaganidan so'ng qo'llnandi [13]. Muallifning fikriga qo'shilgan holda OKga muvofiq ota-onalar (ulardan biri) quyidagi hollarda:

Birinchidan, ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan, ali-

ment to'lashdan bo'yin tovlasa. Bunday holat ota-onalik huquqidan mahrum etiladi bolaga ta'lim-tarbiya berish, birga yashash, ularga g'amxo'rlik qilish, bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, zararli axborot xurujidan himoya qilish, bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish va uni iqtisodiy taraflama ta'minlashdan bo'yin tovplashda namoyon bo'ladi. Masalan, 2023-yil 8-sentabr kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Asaka tumanlararo sudiga Da'vogar M.V. Qurbonova javobgar I.X. Qurbonovga nisbatan "Otalik huquqidan mahrum qilish haqida"gi da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilgan. Ish hujjatlariga ko'ra, taraflar 2010-yilda qonuniy nikohdan o'tib turmush qurishgan va 2011-yilda o'g'il farzand ko'rishgan. Taraflar o'zaro kelishmovchilik oqibatida 2012-yildan buyon alohida-alohida yashab kelishmoqda. Javobgar farzandining ta'lim-tarbiyasi, sog'lig'idan xabar olmasdan, otalik majburiyatlarini bajarmay kelgan. Fuqarolik ishlari bo'yicha Asaka tumanlararo sudining 2012-yildagi sud buyrug'i bilan bir nafar farzandining moddiy ta'minoti uchun javobgardan aliment undirish belgilangan. MIB Asaka tumani bo'limining 2023-yildagi I.X. Qurbonovning aliment qarzi haqidagi ma'lumotga ko'ra, qarzdorlik 43 574 825,15 so'mni tashkil qiladi. Bolalarni himoya qilish bo'limining xulosasida javobgarni bolaga nisbatan otalik huquqidan mahrum qilish maqsadga muvofiq ekanligi ko'rsatilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib sud I.X. Qurbonovni otalik huquqidan mahrum etish bo'yicha qaror chiqargan [14].

Ikkinchidan, uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'uruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa. Masalan, bugungi kunda yolg'iz onalar, boquvchisini yo'qotganlar, turmush o'rtog'ining chet elga ketib, qaytib kelmasligi oqibatida farzandlarini mehribonlik uylariga

olib kelish holatlari ortgan. Ma'lumotlariga ko'ra, mehnat migratsiyasi ota-onasi yoki qarindoshlari bo'lgan bolalarning oilasidan uzoqda to'liq davlat ta'minotidagi muassasalarda tarbiyalanayotgan bolalar soni 935 nafarni, shundan 75 nafari ota-onasining har ikkalasi mehnat migrantlarini tashkil etmoqda [15].

Uchinchidan, ota-onalik huquqini suiiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan, jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa. Bu norma xususida M.M. Xayitov quydagicha fikr bildirib o'tgan: "Ota-onalarning bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lishi, jumladan, jismoniy kuch ishlatsi yoki ruhiy ta'sir ko'rsatishi ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilish sifatida baholanadi va qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka asos bo'ladi". Huquqiy nazariyada ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilish huquqlarni qonun tomonidan belgilangan va tan olingan maqsadga zid ravishda yoki bolaga zarar yetkazish niyatida amalga oshirishdir.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Ayollar ni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazining hududiy bo'limlariga 2022-yilda bolalarning jismoniy, jinsiy, ruhiy va iqtisodiy, shuningdek, boshqa masalalarda tazyiq va zo'ravonlikka uchrashlariga oid jami 346 ta holat belgilangan bo'lib, turlari bo'yicha 21 ta jismoniy, 11 ta jinsiy, 294 ta ruhiy, 4 ta iqtisodiy hamda 16 ta boshqa turdagagi zo'ravonliklar sodir etilgan [12].

To'rtinchidan, muttasil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka mubtalo bo'lgan bo'lsa. Ota-onalarni ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun ularda ushbu kasallikka mubtalo bo'lganligi faktining o'zi yetarli bo'ladi, chunki ushbu holat bola uchun xavf tug'dirishi tabiiy. Bola nosog'lom oilaviy muhitga tushib qoladi, o'zi bilan o'zi qolib ketadi hamda ma'naviy va jismoniy qiynaladi [16]. Masalan, Ohangaron tumani ichki ishlari bo'limining 2023-yildagi xatiga asosan, Ohangaron tumanida yashovchi fuqaro D. Jumakulova uch-

nafar voyaga yetmagan farzandini muntazam ravishda nazoratsiz, keksa yoshdag'i otasining qaramog'iga qoldirib, o'zi spirlti ichimliklar iste'mol qilib, uydan ketib qolib, mehnat faoliyati bilan band bo'lmasdan tilanchilik qilib, ota uyiga 10-15 kunlarda bir marta kelib turgan. Voyaga yetmagan bolalar Ohangaron tumanidagi 47-umumta'lim maktabi 2-sinfida tahsil olib, 2022/2023 o'quv yilida biror marta maktabga bormagan. Ikki nafar qiz farzandi esa onasi bilan ko'chalarda daydilik qilib, maishiy chiqindilarni to'plab yurishgan. Ushbu holatlardan kelib chiqib D. Jumakulovani onalik huquqidan mahrum qilish va bolalarning ta'minoti uchun aliment undirishni so'rab Ohangaron tumani hokimligi Bolalarni himoya qilish shu'basi voyaga yetmaganlar manfaatida da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilgan. Sud da'vo arizasini qanoatlantirib onalik huquqidan mahrum qilgan [17].

Beshinchidan, o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa, ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda ko'rib chiqilgan oilaviy zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyat ishlari jami 1568 tani tashkil etadi. Ushbu jinoyat ishlari doirasida jami 1692 nafar shaxs javobgarlikka tortilgan. Shuningdek, mazkur jinoyatlardan 1617 nafar shaxs jabrlanuvchi sifatida e'tirof etilgan bo'lsa, ularning 1184 nafarini yoki 73 %ini ayollar, 433 nafarini yoki 26 %ini erkaklar, 20 nafarini yoki 1 %ini voyaga yetmaganlar tashkil etadi [18]. Masalan, 2023-yil 21-iyundagi fuqarolik ishlari bo'yicha Qo'qon tumanlararo sudining 2-1502-2301/6479 sonli fuqarolik ishini ko'rib, fuqaro D.ni otalik huquqidan mahrum etish bo'yicha qaror qabul qiladi. Ishda aniqlanishicha, javobgar D. 2020-yil 17-mart kuni turmush o'rtog'i fuqaro S.ni qasddan urib o'dirgan. Nikohlaridan bir nafar farzandi bo'lgan. Voyaga yetmagan bolaga uning tog'asi vasiy etib belgilangan. Mazkur holat yuzasidan fuqaro D.ning ona-

si kelinining haqiqatan ham o'g'li tomonidan qasddan o'ldirilganligi haqida ko'rsatma bergen. Shu bois sud fuqaro D.ni otalik huquqidan mahrum etish bo'yicha qaror qabul qilgan [18].

Yuridik adabiyotlarda ota-onalik huquqidan mahrum etish instituti bo'yicha turlicha yondashuvlarni ko'rish mumkin. M. Baratova ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqida quyidagi xulosalarga keladi: Birinchidan, ota-onalik huquqidan mahrum qilish yuridik faktdir, u tufayli fuqarolik huquq va majburiyatlari yangidan vujudga keladi, o'zgaradi yoki kimgargadir nisbatan bekor bo'ladi; ikkinchidan, oilaviy-huquqiy munosabatlarda axloq normalarini ham zinhor unutmaslik kerak. Zotan, oilaviy-huquqiy munosabatlarda mulkiy emas, shaxsiy, axloqiy jihatlar ustundir" [19].

Shuningdek, S.A. Muratovaning fikricha, sudlarning (shu jumladan, Konstitutsiyaviy sud va inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi) qarorlariga ko'ra, ota-ona huquqlaridan mahrum qilish uchun asos, birinchidan, ota-onalarning aybi, ikkinchidan, bolani boshqa yo'l bilan himoya qila olishning imkonisiz ekanligi [20]. Ota-ona huquqlaridan mahrum qilish instituti birinchi navbatda voyaga yetmagan bolaning manfaatlari va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Albatta bola uchun yaqinlari va ota-onasi himoyasi ostida qolish muhimroq, hatto oila og'ir qiyinchiliklarga duch kelsa ham [21].

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish instituti bolalar manfaatlarni himoya qilishni tavsiflovchi va ota-onaning javobgarligi choralarini birlashtirgan sohaviy huquqiy institut ham sanaladi. Bola huquqlarini o'z farzandlarining hayoti va sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir etgan ota-onalarning harakatlaridan himoya qilish mamlakatda ota-ona huquqlaridan mahrum qilish instituting asosiy vazifalaridan biridir. Voyaga yetmagan oila a'zolarining huquq va manfaatlarini ustuvor himoya qilish zarurati bu shaxslar odadta oilaviy munosabatlarning "eng

zaif" ishtirokchilari ekanligi bilan bog'liq: odatda ular uchun boshqa oila a'zolariga qaraqanda "o'zlarini himoya qilish" qiyinroq, ular eng zaif qatlam hisoblanadilar [22]. R.F. Garipovning fikricha, ota-onalik huquqidan mahrum qilish voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan oilaviy-huquqiy himoya chorasi hisoblanadi [23].

Yana bir nuqtayi nazar, S.A. Muratovning fikricha, ota-onsa huquqlaridan mahrum qilish, muayyan subyektiv huquqlarni yo'qotish shaklida ifodalangan oilaviy-huquqiy javobgarlik chorasi sifatida belgilanadi [24]. N.N. Tarusinaning ta'kidlashicha, ota-onalik huquqidan mahrum qilish – "bolaning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan oilaviy-huquqiy javobgarlikning ota-onalar uchun eng qattiq (jazo) chorasi" [25]. N.A. Ivanova "Ota-onalar uchun ota-onsa huquqlaridan mahrum qilish – bolalarni tarbiyalash va parvarish qilish vazifalarini aybdor ravishda buzgan taqdirda sud tomonidan qo'llanadigan javobgarlik chorasi. Bola uchun esa uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish chorasi, chunki ota-onalarning bolalarga nisbatan noqonuniy aybdor harakati (harakatsizligi) bartaraf yetilganligi sababli bola huquqlarining buzilishiga chek qo'yildi", – deb hisoblaydi [26]. Binobarin, muallif bir vaqtning o'zida oilaviy-huquqiy javobgarlik chorasi sifatida ham, himoya chorasi sifatida ham namoyon bo'ladigan ota-onsa huquqlaridan mahrum qilishning ikki tomonlama xususiyatini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, ota-onalik huquqidan mahrum qilishning mohiyatini aniqlash bo'yicha bir nechta o'rnatilgan yondashuvlarni aniqlash mumkin: oilani huquqiy himoya qilish chorasi; oilaviy-huquqiy javobgarlik chorasi.

An'anaga ko'ra, oilaviy huquq sanksiyalari ikki turga bo'linadi: oilaviy-huquqiy javobgarlik choralarini va qonun-tartibot va subyektiv huquqlarni oilaviy-huquqiy himoya qilish choralarini [27]. Bundan tashqari, Y.V. Yeroxina oila huquqi normalarida mustahkamlan-

gan barcha javobgarlik choralarini faqat oila a'zolariga va ularga tenglashtirilgan shaxslarga nisbatan qo'llanishi mumkinligini ta'kidlaydi. Uchinchi shaxslar oilaviy munosabatlar ishtirokchilarining oilaviy huquqlari buzilgan taqdirda ular oldida oilaviy qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan fuqarolik, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar [28]. Shu munosabat bilan ota-onalik huquqidan mahrum qilish oilaviy-huquqiy javobgarlik chorasi, chunki u faqat ota-onalarga yoki ulardan biriga nisbatan qo'llanadi.

Sud tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilishni qo'llash orqali davlat bolani noqulay huquqlardan va ota-onalarning salbiy ta'siridan himoya qiladi hamda shu bilan bolaning huquq va manfaatlarini himoya qiladi. Ota-onalik huquqidan mahrum etish natijasida ota-onalar ham ma'naviy, ham moddiy qiyinchiliklarga chidashadi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish profilaktik ahamiyatga ega bo'lgan muhim huquqiy choradir. Ota-onalik huquqidan mahrum etish bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning bir usuli sifatida qaralishi kerak, chunki ota-onalarning bolalarga nisbatan noqonuniy va aybli harakatlariga barham berilib, huquqbazarliklarga chek qo'yiladi [29].

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq munosabatlarning jamiyatdagi ijrosi natijasida yuzaga keladigan oqibatlarini shartli ravishda ikki turga, ya'ni moddiy va ma'naviy oqibatlarga ajratib olish lozim. Ota-onalik huquqidan mahrum qilishning moddiy oqibatlari ushbu jazo chorasi qo'llanganidan keyin yuzaga keladigan mulkiy munosabatlarni, meros va aliment, shuningdek, ayrim yuridik javobgarlik masalalarini o'z ichiga oladi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onsa qaysi bolaga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, shu bolaga nisbatan bo'lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan, undan ta'minot olish, shuningdek, bolali fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish

huquqlaridan mahrum bo'ladi [30]. Yuridik adabiyotlarda ko'plab mualliflar "ota-onalarning huquqlaridan mahrum qilish ota-onalar tomonidan huquqbazarlik sodir etilgan taqdirda qo'llanadigan oilaviy-huquqiy javobgarlik chorasi sifatida talqin etiladi. Misol uchun, huquqshunos S.A. Muratova bu borada quyidagi fikrni bildiradi: "Ota-onalik huquqidan mahrum qilish subyektiv oila huquqlari sifatidagi oilaviy huquqiy javobgarlik chorasidir" [24]. Y.K. Tolstoyning fikricha, "ota-onalik huquqlaridan mahrum qilish bolalar manfaatlarini himoya qilish va ota-onalar qayta tarbiyalashga qaratilgan bolalarga nisbatan ota-onaning g'ayriqonuniy xulq-atvori uchun sanksiya hisoblanadi" [31]. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish institutining maqsadi nafaqat bolalar manfaatlarini himoya qilish, balki ota-onalarning no-qonuniy xatti-harakatlari uchun – bolalarni to'g'ri oilada tarbiyalash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun jazolash vositasidir [32].

L. Krasytskaning qayd etishicha, ota-onalik huquqidan mahrum etish favquloda chora va ayni paytda ota-onalik burchini aybli bajarmaganlik uchun javobgarlikning eng yuqori oilaviy qonuni chorasi hisoblanadi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish bir vaqtning o'zida bolaning huquqlarini va ota-onalardan birining huquqlarini himoya qilish usulidir, agar ota-onalik majburiyatlarini bajarmaslik boshqa ota-onsa tomonidan sodir bo'lsa [33]. Zamonaviy oila qonunchiligidagi ota-onalik huquqidan mahrum qilish ota-onalik huquqiy munosabatlarini sud tomonidan majburiy bekor qilishdan iborat institutdir. Ota-onsa oilaviy-huquqiy qonun buzilishi tufayli bolaga nisbatan huquqlarini yo'qotadi. Binobarin, ota-onalik huquqidan mahrum qilish oilaviy-huquqiy javobgarlik chorasi sifatida ham ko'rib chiqilishi kerak [34].

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq munosabatlarni subyektiv yuridik majburiyatlar bilan quyidagicha ifodala-

shimiz mumkin: Birinchidan, taqiqlangan xatti-harakatlarni sodir etishdan tiyilish, ya'ni ota-onalar bolalariga nisbatan munosabatda ota-onalik huquqini suiiste'mol qilmaslik, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lmaslik, jumladan, jismoniy kuch ishlatmaslik yoki ruhiy ta'sir ko'rsatmaslik; muttasil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka mubtalo bo'lmaslik; o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilmaslikka majburdirlar. Ikkinchidan, muayyan xatti-harakatlarni sodir etish, ya'ni bunda ota-onalar o'z bolalariga ta'lim-tarbiya berishlari, ularning sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari lozim bo'ladilar. Qayd etilgan yuridik majburiyatlar ota-onalar tomonidan bajarilmasligi ularga nisbatan qonunda belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi, ya'ni davlat yuridik majburiyatni bajarmagan shaxsga nisbatan majburlov chorasini qo'llaydi [35].

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikricha, ota-onalik huquqidan mahrum qilish oilaviy-huquqiy javobgarlikning bir turi bo'lib, unda jazo elementi eng aniq namoyon bo'ladi. Shuningdek, ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishning asosiy vazifasi bolaning eng yaxshi manfaatlarini ta'minlash va ota-onani jazolamaslikdir.

Ma'lumki, inson rivojlanishiga 50 % genlar va 50 % atrof-muhit ta'sir qiladi. Qizig'i shundaki, ota-onalar nafaqat 50 % genlarni, balki rivojlanish uchun muhitni ham ta'minlaydi [36]. Shu o'rinda xorijiy davlatlar qonunchiligidagi ota-onalik huquqidan mahrum etish shartlari va oqibatlari xususida to'xtalib o'tish joizdir.

Tojikiston Oila kodeksida ota-onalik huquqlaridan mahrum etish (69-modda), [37] Gruziya Fuqarolik kodeksida Ota-onalik huquqlari va majburiyatlaridan mahrum qilish (1206-modda) [38], Latviya Fuqarolik qonuni (200-modda) [39] hamda Litva Fuqarolik kodeksi (3.180-modda) [40] da ota-onalik huquqidan mahrum etishning milliy

qonunchiligidagi belgilangan normalariga o'xshashligini ko'rish mumkin.

Rossiya Oila kodeksining 69-moddasiga [41] ko'ra, bolaga nisbatan ota-onalik jinsiy daxlsizlikka tajovuz, shuningdek, boshqa oila a'zolarining hayoti va sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilingan bo'lsa, bu ota-onalik huquqidan mahrum etishga sabab bo'ladi. Belarus Nikoh va oila to'g'risida kodeksining 80-moddasida bolaga zararli ta'sir ko'rsatadigan axloqsiz turmush tarzini olib borsalar, boladan voz kechishsa va bola bilan alohida yashashda farzandlikka olishga rozilik berish to'g'risida yozma ariza berishsa, ota-onalik huquqidan mahrum etishga asos bo'lishi belgilangan [42].

Armaniston Oila kodeksining 59-moddasida ko'rsatilishicha, o'zlarining axloqsiz xatti-harakatlari bilan bolalarga zararli ta'sir ko'rsatish, bolalarning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilish ota-onalik huquqidan mahrum etishga sabab bo'ladi [43].

Ozarbayjon Oila kodeksi 64-moddasining milliy qonunchiligidan farqli bo'lgan qu'yidagi bandlarida ota-onalik huquqi mahrum etish holatlari ko'rsatib o'tilgan:

64.0.5. oilada bolalarga nisbatan zo'ravonlik bilan bog'liq harakatlar sodir etilganda;

64.0.8. bolalarni jinsiy ekspluatatsiya qilish yoki jinsiy zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyat sodir etilgan taqdirda.

Serbiya Oila qonuni 84-moddasi Ota-onalik huquqidan to'liq mahrum qilish deb nomlangan bo'lib, unga ko'ra;

1. Ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilsa yoki ota-onalik huquqining bir qismi bo'lgan majburiyatlarni qo'pol ravishda e'tiborsiz qoldirsa, ota-onalik huquqidan to'liq mahrum bo'lishi mumkin.

2. ota-onalik huquqining bir qismini o'z ichiga olgan huquqlarni suiiste'mol qilishi:

1) agar ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilsa;

2) agar u bolani ortiqcha mehnatga yoki bolaning axloqi, sog'lig'i yoki ta'limiga xavf-tug'diradigan mehnatga yoki qonun bilan

taqiqlangan mehnatga majburlash orqali bolaning huquqlarini suiiste'mol qilsa;

3) agar ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilsa;

4) agar ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilsa;

5) agar ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilsa;

3. ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilsa;

1) agar ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilsa;

2) agar ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilsa;

3) agar ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilsa;

4) agar ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilsa;

5) agar ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilsa;

4. ota-onalik huquqlarining bir qismi bo'lgan barcha huquq va majburiyatlaridan mahrum qilish, bolani qo'llab-quvvatlash mustasno.

5. Ota-onalik huquqidan to'liq mahrum qilish to'g'risidagi qarorda bolani oiladagi zo'ravonlikdan himoya qilishning bir yoki bir nechta chorasi ko'rsatilishi mumkin.

Qozog'iston Nikoh (nikoh) va oila to'g'risidagi kodeksida (75-modda) [46] belgilanishicha, bolaning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilish, qimor, pul tikish, psixotrop moddalar va (yoki) ularning analoglarini suiiste'mol qilish, ota-onalar o'z farzandining, turmush o'rtog'ining yoki boshqa oila a'zolarining hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoiy huquqbazarlik sodir etgan taqdirda ota-onalik huquqidan mahrum etiladi. Qirg'iziston

Oila kodeksiga ko'ra (74-modda) [47], bolaning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilish, voyaga yetmagan bolalarining sarson-sargardon bo'lismiga ruxsat berish; bolalarni bolalar mehnatining eng yomon shakllariga jalb qilish ota-onalik huquqidan mahrum etilishiga sabab bo'ladi.

Turkmaniston Oila kodeksiga ko'ra (93-moddasi 4-band) [48], ota-onsa axloqsiz xatti-harakatlari bilan bolaga zararli ta'sir ko'rsatish natijasida ham ota-onalik huquqidan mahrum etilishi mumkin.

Moldaviya Oila kodeksiga muvofiq (67-modda) [49], axloqsiz xatti-harakatlar bilan bolaga salbiy ta'sir ko'rsatish hamda bolaning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilish ham ota-onalik huquqidan mahrum etishga sabab bo'ladi. Shuningdek, qonun chiqaruvchi bolaning manfaatlari talab qiladigan boshqa hollarda ham ota-onalik huquqidan mahrum etishni belgilab bergan. Mazkur norma ota-onalik huquqlaridan mahrum etish holatlarini cheklab qo'yagan, balki bolalar manfaati OK 67-moddasida nazarda tutilmagan boshqa harakat yoki harakatsizlik oqibatida buzilgan taqdirda ham ota-onalik huquqidan mahrum etish mumkinligini keltirib chiqaradi.

Xorijiy davlatlarning oila qonunchiligi tahlididan kelib chiqib, shu bilan birga, dunyoda integratsiyalashuv jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida ijtimoiy munosabatlardagi global o'zgarishlarni inobatga olgan holda ota-onalik huquqlaridan mahrum qilish uchun asoslar doirasini kengaytirish nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda oila manfaatlari kafolatlarini yangi mazmunda ta'minlashning institutsional asoslarini takomillashtirish zarur hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, bugun ko'plab mamlakatlarda oila an'analarining buzilishi natijasida ajralishlar soni ortib borayotgani, ota-onalik huquqidan mahrum etish holatlari ortib borayotgani, noan'anaviy nikoh shakllari paydo bo'layotgani, nikohsiz tug'ilgan bolalar va ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar soni or-

tib borib, oilaviy munosabatlarga yondashuv keskin o'zgarayotgani jamiyatdagi eng og'riqli muammolardan biridir.

Xulosalar

Ota-onalik huquqidan mahrum etishning amaldagi milliy va xorijiy qonunchiligini tahlil etish hamda ilmiy-nazariy g'oyalarni o'rganish quyidagicha xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Xorijiy davlatlar qonunchiligini tahlil etib, ota-onalik huquqlarini tugatish, undan mahrum qilish asoslari mavjud bo'lismiga qaramasdan ota-onalik huquqidan mahrum etish tushunchasi mavjud emas degan xulosaga kelindi. Shu bois ota-onalik huquqidan mahrum etish tushunchasiga quyidagi ta'rif berildi:

Oila huquqini tartibga solish obyekti sifatida ota-onalik huquqidan mahrum qilish ota-onalarning ota-onalik majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganlidagi ifodalangan aybli noqonuniy xatti-harakatlari uchun bolalar manfaatlarini himoya qilishga va ota-onalarni qayta tarbiyalashga qaratilgan davlat tomonidan qo'llanadigan sanksiyadir.

Fikrimizcha, bugungi kundagi oilalarda bolalarga nisbatan ota-onalar tomonidan sodir etilayotgan huquqbazarliklar turi ortib borayotganini inobatga olib oila qonunchiliga ota-onalar yoki ulardan biri tomonidan bolaning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilish, bolalarni jinsiy ekspluatatsiya qilish, boshqa oila a'zolarining ham hayoti va sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir etish, bolani jinoyat sodir etishga undash, axloqsiz xatti-harakatlar bilan bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatish ota-onalik huquqidan mahrum etishga sabab bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi normalarni kiritish maqsadga muvofiq sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 79-moddasi quyidagi mazmundagi qoida bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

79-moddasi uchinchi qismi "..... bolaning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilsa;"

79-moddasi 4¹, 4², 4³ qoidalari bilan to'ldirilishi lozim

axloqsiz xatti-harakatlar bilan bolaga salbiy ta'sir ko'rsatsa;

ota-onalik qilishga undasa;

qimor, pul tikish, psixotrop moddalar iste'mol qilishga o'rgartsa;

79-moddasi oltinchi qismi quyidagi mazmundagi qoida bilan to'ldirilishi zarur:

.....boshqa oila a'zolarining hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa;

79-moddasi yettinchi qism bilan to'ldirilishi zarur:

"bolaning manfaatlari talab qiladigan boshqa hollarda ham ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkin".

Nazarimizda, mazkur qoidalar oilada bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga hamda ota-onalarning javobgarlik choralarini aniqlashtirishga, shuningdek, ota-onalik huquqlaridan mahrum etish holatlarining cheklab qo'ymasdan, balki bolalar manfaati OKning 79-moddasida nazarda tutilmagan boshqa turdag'i noqonuniy harakat yoki harakatsizlik oqibatida buzilgan taqdirda ham ota-onalik huquqidan mahrum etish mumkinligini keltirib chiqaradi

REFERENCES

1. Archival materials of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. 2023.
2. Official certificate of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. 2023, October 8.
3. Datsenko V.M. Conceptually, the best interests of children are ensured in international law. *Slovo National School of Justice of Ukraine*, 2020, no. 1 (30), pp. 51–63.
4. Boratov M.X. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish: holat va oqibatlar [Deprivation of parental rights: situation and consequences]. *Bulletin of Legal Sciences*, 2018, vol. 4, pp. 15–18.
5. Spirina T.P. Stanovleniye i razvitiye instituta lisheniya roditelskikh prav v rossiyskom zakonodatelstve [Formation and development of the institution of deprivation of parental rights in Russian legislation]. *Studium*, 2007, no. 2 (7). Available at: <http://www.sarki.ru/studium/publ2/spirina.pdf>
6. Code of Laws on Acts of Civil Status, Marriage, Family and Guardianship Law, ad. by ALL on 1918, September 16. SU RSFSR, 1918, no. 76–77, p. 818.
7. Code of Laws on Acts of Civil Status, Marriage, Family and Guardianship Law, ad. by ALL on 1918, September 16. SU RSFSR, 1926, no. 82, p. 612.
8. Resolution of the All-Russian Central Executive Committee of November 22, 1926 "On the implementation of the Criminal Code of the RSFSR as amended in 1926 (together with the Criminal Code of the RSFSR). SU RSFSR, 1926, no. 80, p. 600.
9. Law of the RSFSR of 30.07.1969 "On approval of the Code on Marriage and Family of the RSFSR" (together with the Code on Marriage and Family of the RSFSR). *Vedomost of RSFSR*, 1969, no. 32, p. 1086.
10. The United Nations Children's Fund's Conference on the Rights of the Child was signed in the city. New York, 1989.
11. O'zbek tilining izohli lugati [An explanatory dictionary of the Uzbek language]. Tashkent, National Encyclopedia of Uzbekistan Publ., 2006-2007 , vol. 2, p. 575.
12. Sharaxmetova U.Sh. Ota-onalik huquqidanmahrum qilishjavobgarlik chorasi sifatida [Deprivation of parental rights as a measure of responsibility]. *Journal of Legal Studies*, 2021, no. 2, p. 64.
13. Court decisions published by civil courts on the Internet. Available at: <https://public.sud.uz/report/CIVIL>

14. Madjidova D.A. Oilalar mustahkamligini ta'minlashda migratsiya ta'sirida yuzaga keluvchi xatarlarni oldini olishning muhim yo'nalishlari. [Important directions for preventing risks caused by migration in ensuring family stability]. *Science and Innovation*, 2022, no. 4, p. 230. ISSN: 2181-3337.
15. Xayitov M.M. Ota-onalik huquqidan mahrum qilishning huquqiy assoslari [Legal grounds for deprivation of parental rights]. Tashkent, TSIL, 2013, p. 12.
16. Civil case No. 2-1107-2304/5747. Court decisions published by civil courts on the Internet. Available at: <https://public.sud.uz/report/CIVIL>
17. Letter No. 07/13-6500-177 dated May 30, 2022 of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan.
18. Civil case No. 2-1502-2301/6479. Court decisions published by civil courts on the Internet. Available at: <https://public.sud.uz/report/CIVIL>.
19. Baratova M. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish: holat va oqibatlar [Deprivation of parental rights: situation and consequences]. *Review of Legal Sciences*, 2018, vol. 4, pp. 15–18.
20. Muratova S.A. Semeynoye pravo [Family law]. Moscow, Norma: Infra-M, 2019, p. 214.
21. Xazova O.A. Otbor detey: mezhdunarodno-pravovyye aspekty [Selection of children: international legal aspects]. *Family and Civil Law*, 2014, p. 20.
22. Gongalo B. M., Krasheninnikov P. V., Mikheyeva L.Yu. Semeynoye pravo [Family law]. P.V. Krasheninnikov (Ed.). Moscow, Statut Publ., 2019, p. 11.
23. Garipov R.F. Deliktospособност' kak pravovaya kategoriya [Delictual capacity as a legal category]. *Bulletin of the Institute of Legislation of the Republic of Kazakhstan*, 2010, vol. 4 (45), p. 63.
24. Muratova S.A. Semeynoye pravo [Family law]. Moscow, Jurisprudence, 2001, p. 159.
25. Tarusina N.N. Semeynoye pravo [Family law]. Moscow, Prospekt Publ., 2001, p. 115.
26. Ivanova N.A. K voprosu o semeyno-pravovoy otvetstvennosti roditeley [On the issue of family and legal responsibility of parents]. *Tambov University Bulletin*, 2014, vol. 10 (138), p. 140.
27. Shevchenko Ya.N. Sovrshennost' zakonodatel'stva o sem'ye (teoreticheskiye problemy sootnosheniya grazhdanskogo i semeynogo zakonodatel'stva) [Improving family legislation (theoretical problems of the relationship between civil and family legislation)]. *Scientific Thought*, Kyiv, 1986, p. 130.
28. Mardakhayeva P.N. Lisheniye roditel'skikh prav kak mera semeyno-pravovoy otvetstvennosti [Deprivation of parental rights as a measure of family and legal responsibility]. Moscow, 2005, p. 189.
29. Levushkin A.N. Deprivation of the parental rights under the legislation of the Baltic States. Available at: <https://llewuskin@mail.ru>
30. Xayitov M.M., Madumarov T.T. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish: oqibat va yechimlar [Termination of parental rights: Consequences and solutions]. *Scientific bulletin of ASU*, 2013, no. 4, p. 43.
31. Tolstoy Yu.K., Sergeev A.P. Grazhdanskoye pravo [Civil law]. Moscow, Prospekt Publ., 2002, p. 426.
32. Lapchevska O. F. Pravovi naslidki pozbavleniya batkiv batkivskix prav [Legal notices of the liberation of Batkiv Batkivskikh]. Available at: <https://kia.court.gov.ua/sud2690/1j/4q/48787/>
33. Krasiska L. Implementation and protection issues property rights of parents and children. Vinnitsa, 2015, p. 496. Available at: <http://www.ap.gp.gov.ua>
34. Temirov A.T. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish institutining tushunchasi [The concept of the institution of deprivation of parental rights]. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2023, vol. 3 (6), p. 1026.
35. Xayitov M.M. Ota-onalik huquqlaridan mahrum qilish [Deprivation of parental rights]. *Scientific Treatise*, 2013, p. 108.
36. Human-Hendricks A.R., Roman N.V. What is the Link Between Antisocial Behaviour of Adolescents and Parenting. *A Systematic Review of Parental Practices to Manage Antisocial Behaviour*, p. 4.
37. Family Code of the Republic of Tajikistan. Dushanbe, 1998, no. 682. Available at: http://www.adlia.tj/show_doc

38. Civil Code of Georgia. 1997, June 26, No. 786-Iis. Available at: <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/31702?publication=125>
39. Civil Law of the Republic of Latvia of 1937, January 28, as amended on 2016, November 19. Available at: www.consultant.ru
40. Civil Code Of The Republic Of Lithuania. 2000, July 18, No. VIII–1864. Available at: <https://e-seimas.lrs.lt/portal/legalAct/lt/TAD/TAIS.245495>
41. Family Code of the Russian Federation. 1995, December 29, No. 223-FZ. Available at: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_8982/
42. Code of the Republic of Belarus on Marriage and Family. 1999, July 1, No. 278-Z. Available at: <https://etalonline.by/document/?regnum=hk9900278>
43. Family Code of the Republic of Armenia. 2004, November 9. Available at: <https://www.arlis.am/documentview.aspx?docid=62819>
44. Family Code of the Republic of Azerbaijan, approved by the Law of the Republic of Azerbaijan of 1999, December 28, No. 781-IQ.
45. Family act of Serbia. Available at: https://www.ilo.org/dyn/natlex/natlex4.detail?p_lang=&p_isn=74539&pclassification
46. Code of the Republic of Kazakhstan on Marriage (Matrimony) and Family. 2011, December 26, No. 518-I. Available at: <https://online.zakon.kz/Document/>.
47. Family Code of the Kyrgyz Republic. 2003, August 30, No. 201. Available at: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/1327>
48. Family Code of Turkmenistan. 2012, January 10, No. 258-IV. Available at: <https://continent-online.com/Document/>
49. Family Code of the Republic of Moldova. 2000, October 26, No. 1316-XIV. Available at: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30398164